



## TA'LIM TURIZMINING MOHIYATI, NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI

**Maxmudova Nodira O'ktamovna**

*Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant. Buxoro, O'zbekiston.*  
[n.u.mahmudova@gmail.com](mailto:n.u.mahmudova@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss3/a45](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a45)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif ta'lim turizmi nazariy mohiyatini, turli manbalarda uning talqinini tizimli o'rganib, o'z tahlillarini keltirgan. Muallif ta'lim turizmi tushunchasini ham ilmiy, ham tarixiy, ham zamonaviy ko'rinishini konseptual asoslashga harakat qilgan. Xususan, ta'lim turizmi xizmatlarining turli xususiyatlari klassifikatsiyasi jadval shaklida ifodalangan.

**Kalit so'zlar:** turizm, ta'lim turizmi, ta'lim turizmi konsepsiyasi, ta'lim turizmi xizmatlari tavsifi va yondashuvlari, ta'lim turizmi klassifikatsiyasi.

### Abstract

In this article, the author systematically studies and analyzes the theoretical essence of educational tourism, its interpretation in various sources. The author offers to conceptually substantiate the concept of educational tourism in both scientific, historical and modern terms. In particular, the classification of various features of educational tourism services is presented in tabular form.

Keywords: tourism, educational tourism, educational tourism concept, description and approaches of educational tourism services, classification of educational tourism.

### Аннотация

В данной статье автор систематически изучает и анализирует теоретическую сущность образовательного туризма, его трактовку в различных источниках. Автор предлагает концептуально обосновать понятие образовательного туризма как в научно-историческом, так и в современном плане. В частности, классификация различных признаков услуг образовательного туризма представлена в табличной форме.

Ключевые слова: туризм, образовательный туризм, концепция образовательного туризма, описание и подходы к услугам образовательного туризма, классификация образовательного туризма.

### Kirish

BTT Jahon sayyohlik barometrlariga ko'ra, xalqaro turizm 2022-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 182 foizga o'sgan, dunyo bo'ylab yo'nalishlar 2021-yilning birinchi choragidagi 41 millionga nisbatan 117 millionga yaqin, jumladan mart oyida 47millionga yaqin xalqaro tashrifni qabul qilgan<sup>1</sup>. Bu tiklanish jadal sur'atlar bilan borayotganligini hamda turizm sohasi bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi hissasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan sohalardan ekanligini ko'rsatadi. Sayohatlar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch bo'lish qatorida sayohatchilarning dunyoqarashni kengaytiradi, insoniy qadriyatlar, shaxsiy tajriba, hissiyotlarni rivojlantirishga ham undaydi. Ta'lim turizmi esa turizmning ushbu ikki jihatini birlashtiruvchi shakli ta'lim turizmidir.

### **Mavzuning o‘rganilganlik darajasi**

XXI asrda ta‘lim turizmining jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining hozirgi darajasi va xususiyatlari bilan bog‘liq. Hayotning tez sur‘atlari, vaqt tanqisligi va moliyaviy imkoniyatlarning xilma-xilligi sharoiti, shuningdek, faol sog‘lom turmush tarzi bo‘sh vaqtga muqobil yo‘nalish sifatida ta‘lim turizmining ahamiyatini belgilab berdi.

Ta‘lim turizmi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tarixiy jihatlariga ko‘ra, taraqqiyotning turli bosqichlarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Yevropada ta‘lim maqsadlarida xalqaro sayohatlar an‘anasi IX asrda universitetlar sonining ko‘payib borishi natijasida shakllangan. XII asrdan boshlab, akademik va talabalar almashinuvi rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘la boshadi. Buyuk mutafakkirlar (J.Lok, J.J.Ruso va boshqalar) g‘oyalari ta‘sirida XVII asr oxiri va XVIII asrning birinchi yarmida Yevropaning bir qancha ta‘lim muassasalari o‘z o‘quvchilari uchun ilmiy ekskursiya va ekspeditsiyalarni tashkillashtirishni yo‘lga qo‘ydilar. XIX asrning o‘rtalaridan Yevropa va Amerikada yangi shakldagi oliy o‘quv yurtlarining tashkil etilishi va ularning ixtisoslashuvi, talabalarning xalqaro harakati dinamikasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Taxminan shu davrlarda Rossiyaning yetakchi pedagoglari ta‘lim turizmining targ‘ibotchilari va tashkilotchilari sifatida namoyon bo‘lishdi [1].

O‘zbekistonda ta‘lim turizmining shakllanish tarixiga nazar tashlaganda, ushbu jarayon qadimiy shaharlar islom dini ta‘limi uchun o‘zga davlatlarning ilm ahlini qabul qila boshlashi bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Xususan, IX asrdan Buxoro “Qubbat ul-islom” - “Islom dinining qubbasini” sifatida, XIII asrdan boshlab "sharif shahar" sifatida ham ma‘lum bo‘lib, u Buxoroyi sharif, ya‘ni Sharofatli Buxoro nomi bilan yuritila boshlandi. Xorazmda Ma‘mun akademiyasining (X-XI asrlar) tashkil etilishi, O‘rta asrlarda Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlar faqat islom bilimni emas, balki dunyoviy ilm-ma‘rifat va madaniyat tarqatishda ham Movarounnahrning yirik markazlari sifatida shakllanganligi ziyo ahlini o‘ziga chorlagan.

Buxorodagi Mir Arab, Abdullaxon, Abdulazizxon madrasalari, Samarqanddagi Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori, Xivadagi Muhammad Rahimxon, Muhammad Amin Inoq madrasalari, Toshkentdagi Ko‘kaldosh, Baroqxon, Abulqosim, Qo‘qondagi Kamol qozi madrasalari, Andijondagi Gumbaz madrasasi va boshqa ilm maskanlari shular jumlasidandir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida 336 ta, Xorazm xonligida 132 ta, Turkiston general-gubernatorligida 348 ta madrasa bo‘lgan. XX asrning 2-choragi boshlarida sovet hukumati tomonidan madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va “xurofot o‘choqlari” tamg‘asi bilan tugatib yuborilgan<sup>2</sup>. Sovet Ittifoqi miqyosida 1971yildan boshlab Toshkent Oliy Mahadi (hozirgi Toshkent Islom instituti) yagona islom oliygohi ham mamalakatimizda faoliyat ko‘rsatgan. Mazkur davrda Sovet ittifoqi hududlarida yashovchi musulmonlar mazkur oliy o‘quv yurtida ta‘lim olishganini ham ta‘lim turizmi bilan bog‘lagan holda tadqiq qilish mumkin.

Bugungi kunda turistik sayohatni maxsus ta‘lim dasturlari, dam olish, ishlash va sevimli mashg‘ulot bilan shug‘ullanish bilan uyg‘unlashtirish, vaqtdan oqilona foydalanish imkoniyati hamda va foydalilik o‘rtasidagi ratsional muvozanat sifatida qabul qilinadi. Dunyo bo‘ylab sayohatchilarning 70% ga yaqini aynan shunday “foydali dam olish” ni tanlaydi [1].

Turizm va ta‘limga oid zamonaviy lug‘atlar va o‘zbek tilining izohli lug‘atlarining tahlili hamda “O‘zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarning tasniflagichi”da “ta‘lim turizmi” tushunchaning alohida talqini, klassifikatsiyasi mavjud emasligini ko‘rsatadi<sup>3</sup>. Bu esa o‘z

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org>

navbatida respublikamizda ushbu turizm turini bo‘yicha mavjud potentsialdan to‘laqonli foydalanishga, samarali rivojlantirishda to‘siq bo‘ladi.

Xorijiy tadqiqotchi B.Ritchi o‘zining “Ta’lim turizmini boshqarish” asarida quyidagi ta’rifni beradi: “Ta’lim turizmi – bu asosiy yoki ikkinchi darajali maqsadi ta’lim va tahsil olish bo‘lgan ekskursant yoki tunab qoluvchi sayyohlarning faoliyatidir”. Boshqacha qilib aytganda, sayohatning asosiy maqsadi ta'lim bo‘lgan ma'lum bir segment mavjud. Tadqiqotchi ushbu segmentga maktab ekskursiyalarini, til maktablari va universitetlarda o‘qishni nazarda tutadi. Boshqa bir segment uchun turizm asosiy, ta'lim yoki tehsil olish esa sayohatning ikkinchi darajali maqsadi hisoblanadi. Bu erda muallif ekologik va madaniy turizmni, shuningdek, ma'rifiy turizmni kiritadi [2].

Bunda madaniy, ekologik va kattalar uchun ta’lim turizmi dasturlari nazarda tutilgan. Aslida, bilim olish sayohatning asosiy maqsadidan iborat bo‘lgan shunday segment mavjuddir. Bir qator xorijiy mualliflar fikricha, ushbu segmentga universitetda, til o‘rgatuvchi maktablarda tahsil olish va maktablardagi turli ekskursiyalar kiradi. Boshqa segmentlardga esa turizm birlamchi hisoblanib, ta’lim olish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish ikkinchi darajali maqsad sifatida qaraladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan ta’riflarga ko‘ra [3], ta’lim olish va kasbiy tayyorgarlikni nazarda tutuvchi sayohatlar quyidagi ko‘rinishdagi faoliyatlarda aks etadi:

- qisqa muddatli kurslarda tahsil olish;
- rasmiy kurslarda qatnashish orqali kasbiy malaka kompetensiyalarini egallash.

Bunda “ta'lim turizmi” tushunchasi odatdagi muhitdan farqli bo‘lgan bir yilgacha muddatda ma’lum bir yo‘nalishga sayohat qiluvchi hamda iqtisodiy manfaatdorlikni nazarda tutmagan har qanday faoliyatda ifodalanadi.

Xorijiy ilmiy manbalarning aksariyatida ta’lim turizmi konsepsiyasini ta’riflashda faollik yondashuvi asosiy rolni o‘ynashini aytish mumkin. “Ta’lim turizmi” atamasi “madaniy turizm”, “ta’lim turizm”, “madaniy va ekskursion-kognitiv turizm” kabi turizm turlaridan kelib chiqqan [4].

A.R.Lebedevning “Ta’lim turizmi iqtisodiy kategoriya sifatida” deb nomlangan maqolasida, ta’lim turizmi tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar bir tomonlama yondashuvga ega, ya’ni turistik xizmatni alohida ishlab chiqarish bosqichlari aks ettirilmagan, deb ta’niqid qilingan [5]. Ular fikricha, ta’lim turizmi xizmatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol bosqichlaridan iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko‘lamda o‘z ichiga oladi. Bu ta'lim turizmi konsepsiyasini belgilashga iqtisodiy yondashuv deb ataladi.

Zorin I.B., Kvartalnov V.A. ta'lim turizmini turistik sayohatlar majmuasi, turistlarni ta’lim olish maqsadi realizatsiyasi, ularning biror ob’yektga qiziqishini hamda narsa, hodisalarni o‘rganishga bo‘lgan boshqa ehtiyojlarini qondirish yo‘naltirilgan ekskursiyalar majmuasi, turistik sayohatlar kompleksi deb ta'riflaydilar [6]. O‘z navbatida bu ta'lim turizmi belgilashga ehtiyojga yo‘naltirilgan yondashuv sanaladi.

Yana bir yondashuv- dasturiy yondashuvni ko‘rib chiqamiz. Uning xususiyati ta'lim turizmini joriy ta'lim dasturlari doirasida ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan o‘quv sayohatlari tizimi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiluvchi mualliflarning ta'rifida aks etadi [7].

Ta'lim turizmini ma'lum ta'lim dasturlari doirasida sifatli ta'lim xizmatlarini olish maqsadlariga erishish uchun ixtisoslashgan mamlakatlar va mintaqalarga shaxslar, guruhlarining sayohatlari deb izohlanadi [8]. Bunda ta'lim turizmi konsepsiyasini belgilashga

dasturiy yo‘naltirilgan yondashuv, shuningdek, hududiy va iste‘molchilar segmentlariga asoslangan birgalikda amalga oshirilgan yondashuv haqida so‘z yuritish mumkin.

Va nihoyat, boshqa bir muallif ta‘kidlaganidek, ta‘lim turizmi turistning malakasini oshirishning bir qismi sifatida zaruriy ta‘lim olish doirasida bir kundan olti oygacha davom etadigan, ayni paytda vaqtincha bo‘lish joyida iqtisodiy daromad ko‘rmaslik sharti bilan qilinadigan sayohatlar to‘plamidir. Ular turli kurslarda qatnashish va stajirovkalarni o‘z ichiga oladi [9]. Bu esa ta‘lim turizmi konsepsiyasini belgilashga amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, shuningdek, hududiy va davomiylik xususiyatlarga asoslangan birgalikda amalga oshiriladigan yondashuv izohlaydi. Bu boradagi yondashuvlarni 1-jadvalda tizimli ravishda ifodalanaadi:

**1-jadval**

**Ta‘lim turizmi tushunchasining ta‘riflari va yondashuvi**

	<b>Muallif</b>	<b>Ta‘rifi</b>	<b>Yondashuv</b>
1.	Ritchie Brent W. Managing educational tourism. B., 2003. P. 181	Ta‘lim turizmi – bu asosiy yoki ikkinchi darajali maqsadi ta‘lim va tahsil olish bo‘lgan ekskursant yoki tunab qoluvchi sayyohlarning faoliyatidir	Ehtiyojga yo‘naltirilgan
2.	Butunjahon Turizm Tashkiloti	Ta‘lim turizmi odatdagi muhitdan tashqarida ma‘lum bir yo‘nalishga, davomiyligi bir yilgacha bo‘lgan qisqa kurslarda o‘qish, ta‘lim dasturlarini o‘tash, kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallash maqsadidagi sayohatdir.	amaliy faoliyat+ +dasturiy yondashuv
3.	Лунин Э. А. Совершенствование образовательным туризмом в РФ: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.05); Санкт-Петербург, 2009. с. 38.	“Ta‘lim turizmi” atamasini “madaniy turizm”, “ma‘rifiy turizm”, “madaniy va ekskursion-kognitiv turizmi” kabi turizm turlaridan kelib chiqqan. 24 soatdan 6 oygacha muddatda sayohatlar ta‘lim olish (umumiy, ixtisoslashtirilgan, qo‘shimcha), malaka oshirishga mo‘ljallangan kurslar, stajirovkalar shaklida, iqtisodiy manfaat ko‘rmaslik sharti bilan amalga oshiriladigan faoliyatdir.	amaliy faoliyat+hududiy+davomiylik yondashuv
4.	Лебедев А. Р. Образовательный туризм как экономическая категория. А. Р. Лебедев. Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы. - 2012. - № 6. - С. 5.	Ta‘lim turizmi xizmatlari ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste‘mol bosqichlaridan iborat iqtisodiy munosabatlarni milliy hamda xalqaro ko‘lamda o‘z ichiga oladi.	iqtisodiy
5.	Зорин И. В., Квартальнов В. А. Энциклопедия туризма: Справочник. – М.: Финансы и статистика, 2003,33-b	Ta‘lim turizmi turistik sayohatlar majmuasi, turistlarni ta‘lim olish maqsadi realizatsiyasi, ularning biror obyektga qiziqishini hamda narsa, hodisalarni o‘rganishga bo‘lgan boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ekskursiyalar majmuasi, turistik sayohatlar kompleksidir.	ehtiyojga yo‘naltirilgan
6.	Соломин В.П., Погодина В.Л. "Современное состояние и перспективы развития образовательного туризма в России" Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, vol. 8, no. 30, 2007, pp. 96-112.	Ta‘lim turizmi- joriy ta‘lim dasturlari doirasida ta‘lim muassasalari tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish maqsadlariga erishish uchun amalga oshiriladigan o‘quv sayohatlar tizimi.	Dasturiy mo‘ljallangan

	<b>Muallif</b>	<b>Ta’rifi</b>	<b>Yondashuv</b>
7.	Chebatar Yu.M. Turizm biznesi. Sayohat agentliklari va ularning mijozlari uchun amaliy qo’llanma / Yu. M. Chebatar. - Moskva: Biznes kitoblari olami, 1997. S.13	Ta’lim turizmi ma’lum ta’lim dasturlari doirasida sifatli ta’lim xizmatlarini olish maqsadlariga erishish uchun ixtisoslashgan mamlakatlar va mintaqalarga shaxslar, guruhlarining sayohatlaridir.	dasturiy +amaliy faoliyat+hududiy+iste’molchilar segmentiga yo’naltirilgan
8.	Salomon M., Sokolowski S., Haddock M. Measuring the economic value of volunteer work globally: concepts, Estimates and a roadmap to the future // Annals of Public and Cooperative Economics. - 2011. – 82(3). - P. 217 -252.	Ta’lim turizmi bilim olish va o’rganish maqsadi mavjud bo’lgan ekskursant va tunab qoladigan mehmonlarning faoliyatida aks etadi.	iste’molchi segmenti va amaliy faoliyatga yo’naltirilgan
9.	Дойль П. Маркетинг-менеджмент и стратегия / пер. с англ. С. Жильцов - 3-е изд. - СПб: Питер, 2002. – 538 с.	"Ta’lim turizmi" tushunchasi odatdagi muhitdan farqli bo’lgan bir yilgacha bo’lgan muddatda ma’lum bir yo’nalishga sayohat qiluvchi hamda iqtisodiy manfaatdorlikni nazarda tutmagan har qanday faoliyatda ifodalanadi.	Amaliy faoliyatga yo’naltirilgan
10.	Ren Wei-lin, Ma, Xiao-Tong. Bacon's view on tourism and its enlightenment to Yen et al.; AJESS, 17(1): 1-16, 2021; Article no.AJESS.67893 12 postgraduate tourism. Journal of Tourism. 2018;33(09):145-150.	O’qish va o’rganish turizmi, bu tadqiqot va izlanishlarga asoslangan o’rganish maqsadidagi maxsus turizm...	Dasturiy mo’ljallangan
11.	Cui, Yingfang. Research on the development status and suggestions of research & study travel. Jiangsu Business Theory. 2020;03:74-76.	O’qish va o’rganish sayohati ta’limning yangi shakli bo’lib, ta’lim faoliyatini turizm tajribasi bilan birlashtiradi.	Amaliy faoliyatga yo’naltirilgan

*Manba: Muallif ishlanmasi.*

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ta’lim turizmi xizmatlari tahlilida mantiqiylik, tarixiylik, analiz,sintez, monografik tadqiqot, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Xorijiy va mahalliy mualliflarning yuqoridagi barcha ta’riflarini umumlashtirib (1.1-jadval) xulosa qilish mumkinki, “ta’lim turizmi” tushunchasi turli ta’lim maqsadlarini amalga oshirish doirasidagi sayohatlar yoki ularning majmuasidir. Shuni ham ta’kidlash joizki, aksariyat mualliflar bunday sayohatlarda ko’rsatilgan ta’lim maqsadi yagona ham emas, shuningdek, alohida holatlarda asosiy ham emasligini ta’kidlaganlar.


Fikrimizcha, ushbu xulosada ta’lim turizmining barcha xususiyatlari tilga olinmagan, chunki sayohatlarning asosiy maqsadi har doim turizm turini belgilab bergan. Joriy holatda amaliy faoliyat yondashuvida sayohat davomida qiziqish va boshqa kognitiv qiziqishlarni qondirish bilan bog’liq bir qator maqsadlarni ajratib ko’rsatish maqsadga muvofiq emas, chunki "turizm" bilish jarayonlari, yangi bilim va taassurotlar olish bilan bog’langan. Shuni ham hisobga olish kerakki, ayrim mualliflar tomonidan sayohatning ta’lim maqsadlarini amalga

oshirish davomiylik yondashuvida 6 oygacha deb qayd etgani noo‘rindir, chunki turist tashrif buyurilgan manzilda bir yilgacha muddatda istiqomat qilishi mumkin.

Demak, agar sayohat muddati bir yildan ortiq bo‘lsa, unda sayyoh migrant yoki doimiy rezident hisoblanadi. Shuningdek, ta‘lim turizmi konsepsiyasini belgilashda muhim kamchilik sifatida ta‘lim turizmi iste‘molchilarining turli guruhlariga bo‘linishi qayd etilmaganligi, boshqa yo‘ndashuvlarda ta‘lim sayohatlari tashkil etiladigan asosiy maqsadli segmentlarga (ta‘lim olish, ta‘lim berish, umumiy yoki kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish...) havolalarning yo‘qligi hisobga olinishi kerak.

IRTS 2008 tasnifiga ko‘ra, ta‘lim turizmi kirish turizmining alohida kichik turi sifatida ajralib turadi va turistik sayohat maqsadlariga muvofiq turizmning boshqa turlaridan aniq farqlanadi.

R.Brent, C.Kuper, N.Karr “o‘rganish maqsadida sayohat”ning ikkita asosiy segmentini ajratib ko‘rsatadilar. Birinchi segmentda "Tourism first", turistik sayohat paytida dam olish, ko‘ngil ochish, sog‘lomlashtirish va boshqalar birinchi o‘rinda, ta‘lim esa ikkinchi darajalidir. "Education First"- ikkinchi segmentida sayohatning asosiy motivi ta‘lim yoki o‘qitish bo‘lib, turistik sayohat ikkinchi darajali deb qaraladi [10]. Quyida biz “Education first” yondashuviga asoslanib, ta‘lim turizmi tushunchasining tasnifini shakllantirdik (2-rasm):



**2-rasm. Ta'lim va turizm tushunchalari tahlili asosida ta'lim turizmining konsepsiyasi**

*Manba: Muallif ishlanmasi.*

O‘zbekistonda ta‘lim turizmini tashkil etish haqida gapirganda, uni qonunchilik va tartibga solish darajasida tushunishning ba‘zi o‘ziga xos xususiyatlarini ta‘kidlash kerak. Mamlakatimiz qonunchiligida, O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risidagi” ( 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son) qonuniga muvofiq”, turist — vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs”; va IRTS 2008da turist odatdagi muhitdan tashqarida bir yildan kamroq vaqt davomida sayohat qilgan sayohatchi hisoblanadi. Ikkala yondashuvlar ham, albatta, ta‘lim turizmi statistikasida ko‘proq turistlar sonini hisobga olish va shunga mos ravishda ta‘lim turizmining hududning iqtisodiy-rivojlanishiga ta‘sirini batafsilroq o‘rganish imkonini beradi.

Biz tadqiqotimizda O‘zbekiston Respublikasining turizm va ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy va qonunchilik bazasiga tayanamiz, ya’ni "Turizm to‘g‘risidagi"( 18.07.2019-yildagi O‘RQ-549-son), 20.10.2019yilda kuchga kirgan, va O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son, 24.09.2020 yilda kuchga kirgan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar nazarda tutilmoqda. Unga asosan, ta’lim - ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umum ta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan ta’limning xalqaro standarti tasnifiga ko‘ra, ta’lim - bu o‘rganish maqsadida muloqotni o‘z ichiga olgan jarayon bo‘lib, u orqali jamiyat to‘plangan bilim, tushuncha, qadriyatlar, ko‘nikma va xatti-harakatlarni avloddan avlodga maqsadli ravishda uzatadi. Shuningdek, ta’lim olishning asosiy yo‘li turli ta’lim muassasalarida yuritiladigan o‘qitish jarayonida ishtirok etish, anglash deb e’tirof etiladi. Bilim va ko‘nikmalarni egallashda madaniy-ma’rifiy ishlar, ijtimoiy va mehnat faoliyatida ishtirok etish, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalash bir xil darajada muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, turli fan vakillari tomonidan o‘rganiladi. Xulosa qilib, ta’lim turizmi inson rivojlanishiga, bilimni sifat jihatidan yaxshilashga va shaxsiy o‘shishga hissa qo‘shadigan o‘qish va turmush tarzi, sayohat shaklidir, deb ta’kidlash mumkin. Biroq, bunda barcha o‘quv ekskursiya dasturi, sayohat tashkil etish va o‘tkazishning omillar majmuasi bilan belgilanadigan xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ushbu kompleks sayohat ekskursiyaning ta’lim maqsadini, turistik guruh va tashrif buyurilgan mintaqaning o‘ziga xosligini, sayohatning davomiyligi va mavsumini, tur ishtirokchilarining yoshi, tajribasi, tayyorgarligi hamda o‘quv guruhi uchun moliyaviy xarajatlar ehtimoli kabilarni o‘z ichiga oladi.

Turizm bozorida mavjud bo‘lgan yoki o‘quv jarayonida qo‘llanilayotgan turli xil ta’lim turlarini tahlil qilish sayohatlarni tasniflashga olib keldi (2-jadval).

## 2-jadval

### Ta’lim turizmining tavsiflanishi va turlari

No	Ta’lim turizmi tavsiflanishi	Tavsiflanish ko‘rinishlari
1.	Ishtirokchilar tarkibiga ko‘ra	Maktab o‘quvchilari, talabalar, magistr, PhD, mutaxassislar, erkin tinglovchilar
2.	Maqsadiga ko‘ra	Umumiy, ko‘nikmalarni rivojlantirish, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ta’lim olish, ta’lim berish, aralash(ta’lim olish hamda ta’lim berish)
3.	Mavzusiga ko‘ra	Keng qamrovli, atrof-muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, texnikaviy, kasbiy
4.	Ishtirokchilar soniga ko‘ra	Individual, guruh
5.	Shakllantirilganligiga ko‘ra	Maxsus tashkil etilgan, tashkillashtirilmagan
6.	Faoliyatning tashkil etilish	Dialog, virtual, ilmiy-amaliy anjumanlar, innovasion yarmarkalar
7.	Hududiy miqyosiga ko‘ra	Mahalliy, hududiy, xalqaro
8.	Sayohat turlari	Til o‘rganish bo‘yicha turlar, sport bo‘yicha turlar, Kasb-hunar o‘rganish, malaka oshirishga yo‘naltirilgan turlar
9.	Moliyalashtirish manbalariga ko‘ra	Davlat grantlari, o‘z mablag‘lari hisobidan, Nodavlat- notijorat tashkilotlar tomonidan
10.	Muddatiga ko‘ra	Qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli
11.	Ishtirokchilar yoshiga ko‘ra	16yoshgacha, 16-25yoshgacha, 25-45yoshgacha, 45-65yoshgacha, 65yosh va undan yuqorilar
12.	Ko‘lamiga ko‘ra	Ichki, kiruvchi, chiquvchi

Manba: Ibragimova M., Structure and classification of educational tourism services. Innovations in economy journal, №4,2021 manba ma’lumoti asosida muallif tomonidan to‘ldirildi.

### **Xulosa va takliflar**

Sayohatlarni tashkil etishda qo'llaniladigan tur va usullarning xilma-xilligi yangi g'oyalarni joriy etish, turizm mahsulotini ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish, ta'lim va turizm xizmatlari turlarini kengaytirish imkonini beradi. Ta'lim turizmining o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning innovatsion shakli sifatida xususiyatlari zamonaviy ta'lim maqsadlari, tamoyillari va yondashuvlarini belgilashdagi tub o'zgarishlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Fikrimizcha, jamiyatning tegishli axborot bilan ta'minlanishi, bo'sh pul mablag'lari shakllanishi, hukumatning qo'llab-quvvatlovchi siyosati va samarali o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va stipendiyali turli ta'lim kurslariga kirish imkoniyatlarini yaxshilash ta'lim turizmi bozorini harakatga keltiruvchi omillardan hisoblanadi. Dunyo bo'ylab turli mamlakatlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining bir qismi sifatida ta'lim turizmini targ'ib qilmoqda. Bunda mezbon mamlakatlar xalqaro talabalarning turar joy, oziq-ovqat va ichimliklar, o'qish to'lovlari, soliqlar va boshqa dam olish tadbirlari uchun xarajatlaridan foyda ko'radi, bu esa o'z navbatida davlat va jamiyatni ham manaviy, ham madaniy hamda iqtisodiy jihatdan ravnaqiga xizmat qiladi.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Dembovska I., Silicka I., Lubkina V. Educational Tourism in the Training of Future Tourism Professionals.
2. Пономарева Т.В. Образовательный туризм: сущность, цели и основные сегменты потребителей. Материалы IV Международной научной конференции "Проблемы современной экономики". Челябинск: Два комсомольца, 2015. 158 с. С.139-142.
3. WTO, ООН- Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год. Нью-Йорк, Мадрид, 2010г.
4. Лунин, Э. А. Совершенствование управления образовательным туризмом в РФ [Текст]: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.05) / Лунин Эдуард Андреевич; Санкт-Петербург. гос. ун. — Санкт-Петербург, 2009. — 156 с.
5. Лебедев А. Р. Образовательный туризм как экономическая категория / Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы. — 2012. — № 6.
6. Зорин И. В., Квартальнов В. А. Энциклопедия туризма: Справочник. — М.: Финансы и статистика, 2003,33-б.
7. Соломин В.П., Погодина В.Л. "Современное состояние и перспективы развития образовательного туризма в России" Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена, vol. 8, no. 30, 2007, 96-112с.
8. Chebotar Yu.M. Turizm biznesi. Sayohat agentliklari va ularning mijozlari uchun amaliy qo'llanma / Yu. M. Chebotar. - Moskva: Biznes kitoblari olami, 1997. S.13
9. Лунин Э. А. Совершенствование управления образовательным туризмом в РФ: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук (08.00.05); Санкт-Петербург, 2009. с. 38.
10. Бельская Н.Л. Современные подходы к управлению образовательным туризмом. Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса, 2015, (2 (4)), 29-38. 38.